

**YENGIL SANOATNING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI VA
ISTIQBOLLA.**

Talaba: Beknazarova Gavhar

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

**MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:**

Received: 09.04.2026

Revised: 10.04.2026

Accepted: 11.04.2026

KALIT SO'ZLAR:

*yengil sanoat,
iqtisodiy rivojlanish,
investitsiya, innovatsiya,
eksport, bandlik.*

Mazkur maqolada yengil sanoatning milliy iqtisodiyotdagi o'rni va uning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari yoritilib, tarmoqning bandlikni oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda iqtisodiy o'sishni jadallashtirishdagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, innovatsion yondashuvlar va barqaror rivojlanish strategiyalari asosida sohaning istiqbollari tahlil qilinadi.

O'zbekistonda sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda davlatning roli, birinchi navbatda, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida milliy iqtisodiyot tarmoqlarini tartibga solish, sanoat tarmoqlariga ta'sir etuvchi tashqi salbiy omillarni bartaraf etish, eksportni rag'batlantirish, soliqqa tortishda imtiyozlar berish, moliya-kredit mexanizmlarini rivojlantirish masalalaridan iborat.

Bu jarayonlar bevosita qonuniy-huquqiy jihatlar va institutsional o'zgarishlarga asoslangan holda davlat tomonidan tartibga solinishi lozim. Iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlari va rivojlanishning zamonaviy bosqichi yengil sanoat tarmoqlarini samarali boshqarishni alohida tadqiq qilishni talab qiladi. Zero xalqaro maydondagi yengil sanoat sohasida raqobatning ham keskinlashuviga, har bir mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'z mavqegini mustahkamlash uchun kurashishning kuchayishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Bu borada mamlakatimizda mazkur sohaga raqamlashtirishning tadbiiq etilishi, innovatsiyalarni keng jalb qilish, tadbirkorlarni moliyaviy rag'batlantirish va tartibga solish

mexanizmini takomillashtirish, samarali boshqaruv orqali davlatning Yengil sanoat sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirayotgan chora-tadbirlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yengil sanoat-xilma-xil xom ashyodan keng iste'mol mahsulotlari va buyumlariga ixtisoslashgan sanoat tarmoqlari majmuidir. Yengil sanoatda paxta, ipak, zigir, kanop, jut tolalari, hayvonlar terisi, juni, sun'iy tolalar, sun'iy charm xom ashyo sifatida foydalaniladi. Uning asosiy tarmoqlari to'qimachilik, tikuvchilik, ko'nychilik, mo'ynado'zlik, poyab-zal sanoatlari hisoblanadi. Yengil sanoat mahsulotlari mebelsozlik, aviatsiya, avtomobilsozlik, sog'liqni saqlash va boshqalar sohalarda ishlatiladi.⁹

Yengil sanoat ishlab chiqarishining tarixiy rivojlanishi to'g'risida so'z yuritilganda shuni ta'kidlash joizki, hozirgi O'zbekiston hududida «Uy sanoati»ning rivoji bundan 12-15 ming yil muqaddam mezolit davrida boshlangan. Bu davrda juda oddiy mehnat qurollari va buyumlari tayyorlangan sanoatning vujudga kelishi va rivojlanishi mehnat taqsimotining o'sishi, ishlab chiqarishni differentsiyalash va intensivlashtirish bilan chambarchas bog'liqligini bilamiz.

Keyingi yillarda O'zbekistonda yengil sanoatni rivojlantirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Hukumat tomonidan mazkur sohani qo'llabquvvatlash uchun investitsiyalar jalb qilinmoqda, xususan, xorijiy investorlar uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda. Yengil sanoatning rivojlanishi bilan bog'liq asosiy muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ham muhim masala hisoblanadi.


Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, yengil sanoatning rivojlanishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, innovatsiyalarni jalb qilish va global bozorga chiqish bilan bog'liqdir. Masalan, Xitoy va Turkiya tajribasi yengil sanoatni rivojlantirish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash muhimligini ko'rsatadi. O'zbekistonda ham bu sohada qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

“To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishning 2017-2021-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturi to'g'risida”gi qarori sohadagi mavjud imkoniyatlarni to'la ochish, salohiyatlardan oqilona va unumli foydalanish maqsadida qabul qilingan edi. Unga muvofiq “Paxta-to'qimachilik klasteri” tashkil etildi.¹⁰

⁹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Yengil_sanoat

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2016-yil 21-dekabrda PQ2687 sonli Qarori

Yengil sanoat korxonalarida yalpi tushumning umumiy hajmida tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlarining eksporti 60 foizdan kam bo‘lgan eksport ulushiga ega bo‘lgan korxonalar 2023 yil 1-yanvarga qadar mol-mulk solig‘ini to‘lashdan ozod etilishi belgilab qo‘yilgan.¹¹



1-rasm . Sanoat korxonalari ulushi

To‘qimachilik sanoati sohasidagi standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimini xalqaro talab va standartlarga uyg‘unlashtirish, shuningdek, mahsulotlar sinov laboratoriyalarini modernizatsiya qilish va akkreditatsiyadan o‘tkazish orqali takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ko‘llash, to‘qimachilik sanoati korxonalarining faoliyatiga innovatsion texnologiyalar, shu jumladan dizaynerlik ishlanmalari, nou-xau, sifat menejmenti tizimlari va zamonaviy marketing xizmatlari keng joriy etilishini ta‘minlanishi belgilandi.

2023 yilda sohani rivojlantirish uchun 300 million dollar imtiyozli mablag‘lar ajratilib, ularning 200 million dollari to‘qimachilik mahsulotlarini eksport qiluvchi korxonalarining aylanma mablag‘larini to‘ldirishga, 100 million dollari esa gilamchilik va uy to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirishni moliyalashtirishga yo‘naltiriladi.¹² 2020 yilda O‘zbekiston “GSP+” tizimiga qo‘shilganligi bu yengil sanoat

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 sentyabrdagi “Engil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4453 sonli Qarorida


¹² <https://sputniknews.uz/20230306/toqimachilik-eksport-salohiyati-32685606.htm>

mahsulotlarini Yevropa bozoriga sotishga imkon yaratdi. davlatimiz tomonidan eksportga yo'naltirilgan mahsulotlarning transport xarajatlarining 70 foiz miqdorida subsidiya berilishi eksport qilinayotgani mahsulotlarni turini ko'paytirishga olib kelmoqda.

Bu islohatlarni yaqqol misol tariqasida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 23.02.2021 yildagi «O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasining to'qimachilik va tikuv-trikotaj sohasini rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va undan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida» gi qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga binoan, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sohasidagi tashkilotlarga Jamg'armadan mablag' ajratish tartibi, daromadlar va xarajatlar smetalarini tuzish tartibi, to'qimachilik va tikuv-trikotaj tarmoqlari tashkilotlarida xalqaro standartlarni joriy etish, tayyor mahsulotlarni tashqi bozorlar talablarini hisobga olgan holda sertifikatlash bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirish, soha tashkilotlarining xalqaro ko'rgazmalar va yarmarkalarda ishtirok etish, milliy brendlarni yaratish va ilgari surish bilan bog'liq xarajatlarini qoplash, ilmiy tadqiqot va innovatsion loyihalarni amalga oshirish, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, jumladan ularni xorijga o'qish uchun yuborish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar belgilandi.¹³

Bundan tashqari bu sohada ayollarni bandlik ulishi ham tobora ortib bormoqda Mamlakatimizda to'qimachilik va tikuv-trikotaj yo'nalishida 7,5 mingga yaqin faoliyat yuritmoqda. Ushbu korxonalarda ishlovchi 360 mingdan ziyod ishchilarning 70 foizidan ortig'ini xotin-qizlar tashkil etmoqda. 258 ta engil sanoat korxonasining har birida 100 nafardan ortiq xotin-qizlar ishlamoqda. «O'zcharmsanoat» uyushmasiga 525 ta korxonalar a'zo bo'lib, bu yo'nalishda ham 50- 100 nafargacha ayollar faoliyat yuritayotgan korxonalar soni ko'pchilikni tashkil etadi. 7 2023-yilning yanvar-iyun oylari oralig'ida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmida sanoat tarmog'ining ulushi ortdi. Iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmida eng ko'p ulush (30,2 foiz) ishlab chiqarish sanoatining hissasiga to'g'ri keldi. Xususan, investitsiyalarning 8,0 foizi tog'-kon sanoati, 7,5 foizi tabiiy gaz va bug' etkazib berish, havo namligini bir xilda saqlash kabi sohalarga to'g'ri keldi.8 Hozirgi kunda yengil sanoat tarmog'ini tovar va xizmatlar bozorining ajralmas bir qismi sifatida qarash mumkin. Bu bilan yengil sanoat, iste'molchilarning o'z mahsulotlariga bo'lgan talabini qondiradi. Talabni qondirish esa iqtisodiyotning harakatlantiruvchi hamda iqtisodiy faoliyatni rag'batlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Mavjud imkoniyatlardan to'liq ishga solgan holda mahalliy sanoat tarmoqlari eksport salohiyatini yanada rivojlantirish maqsadida.

¹³ <https://sputniknews.uz/20230306/toqimachilik-eksport-salohiyati-32685606.html>



2-rasm. Yengil sanoatning eksport hajmi .

Yengil sanoatning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini va istiqbollari juda muhim, chunki u mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda, ish o'rinlarini yaratishda, eksport salohiyatini oshirishda va xalqaro savdoda raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Yengil sanoat, asosan, to'qimachilik, kiyim-kechak, poyabzal, oziq-ovqat va boshqa iste'mol mollari ishlab chiqarishga qaratilgan soha bo'lib, uning iqtisodiy ahamiyati quyidagi jihatlardan ko'rinadi:

1. Ish o'rinlari yaratish Yengil sanoat ko'plab odamlarni ish bilan ta'minlaydi, bu esa bandlikni oshiradi va iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlaydi. Ayniqsa, ayollar uchun ish o'rinlari yaratish sohaning ijtimoiy ahamiyatini oshiradi.

2. Mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish Yengil sanoatning rivojlanishi mahalliy ishlab chiqarish va ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, import o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarishni kuchaytiradi va iqtisodiyotda qiymat yaratadi.

3. Eksport salohiyatini oshirish Yengil sanoat mahsulotlari, ayniqsa, to'qimachilik va kiyim-kechak sanoati, mamlakatlarning eksport salohiyatini oshirishda katta rol o'ynaydi. Keng miqyosda eksport qilish orqali yengil sanoat milliy iqtisodiyotni mustahkamlaydi.

4. Texnologik innovatsiyalar Yengil sanoatning rivoji texnologik innovatsiyalarni joriy qilishni ta'minlaydi. Yangi texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etish orqali samaradorlikni oshirish mumkin.

5. Barqaror rivojlanish Yengil sanoat, shuningdek, ekologik jihatdan toza texnologiyalarni ishlab chiqishda ham muhim rol o'ynaydi. Barqaror ishlab chiqarish va qayta tiklanuvchi resurslar bilan ishlash orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash mumkin.

Istiqbollari:

1. Yoshlar uchun ish o'rinlarini yaratish: Yengil sanoat yoshlarning bandligini oshirishda va ularni malakali ish kuchiga aylantirishda muhim omil bo'lishi mumkin.

2. Texnologik rivojlanish va raqobatbardoshlik: Texnologiyalarning yangilanishi, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish va raqobatbardoshlikni oshirish yengil sanoatning istiqboli uchun muhim yo'nalishdir.

3. Xalqaro bozorlarda raqobat: Yengil sanoat mahsulotlari uchun yangi eksport bozorlarini topish va xalqaro bozorlar bilan hamkorlikni kengaytirish istiqbollari mavjud. Shu bilan birga, yengil sanoat rivojlanishi uchun quyidagi omillarni hisobga olish zarur:

4. Resurslar va infrastrukturaga sarmoya: Zarur infratuzilma va ishlab chiqarish resurslarini ta'minlash.

5. Mahsulot sifatini oshirish: Innovatsiyalar va texnologiyalarni joriy etish orqali sifatni yaxshilash.

6. Xalqaro hamkorlik: Yengil sanoat mahsulotlarini eksport qilishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish.

Xulosa qilib aytganda, yengil sanoat O'zbekistonning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, ish o'rinlarini yaratish va milliy eksport salohiyatini kengaytirishda strategik ahamiyatga ega tarmoqlardan biridir. Ushbu soha nafaqat to'qimachilik, kiyim-kechak va poyabzal ishlab chiqarishni rivojlantiradi, balki innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish, sifat va raqobatbardoshlikni oshirish orqali global bozorlarda mamlakatimiz mavqegini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Davlat tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy rag'batlar, imtiyozlar va islohotlar, shuningdek, ayollar va yoshlarning bandligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar yengil sanoatning istiqbolini yanada kengaytiradi. Shu bilan birga, barqaror ishlab chiqarish va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish sohaning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlaydi.

Natijada, yengil sanoat nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va innovatsion rivojlanishning ham drayveriga aylanadi, mamlakatimizning xalqaro mehnat taqsimotidagi raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Kelajakda bu sohada innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni

kuchaytirish zarur. Shuningdek, yengil sanoat korxonalarining xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish uchun yangi strategiyalar ishlab chiqish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.
2. Jahon banki hisobotlari (2022).
3. Xitoy va Turkiyaning yengil sanoat bo'yicha tajribasi.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yengil sanoatni rivojlantirishga oid qarorlari.
5. Iqtisodiy tadqiqot markazi hisobotlari.
6. Umarova, Zevi Odilovna, and Feruza Yaxyoevna Obidova. "GLOBALLASHUV SHAROITIDA INNOVATSION LOYIHALARNI BOSHQARISH." Educational Research in Universal Sciences 2.3 (2023): 203- 207.
7. Obidova, Feruza Yaxyoevna, and Zevi Odilovna Umarova. "BOSHQARUV FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHDA KADRLARNING GENDER TENGLIGI." Educational Research in Universal Sciences 2.3 (2023): 208-215.
8. Umarova, Z. O. "BUSINESS OPPORTUNITY FOR TOURISM DEVELOPMENT." Экономика и социум 10 (2020): 275-278.
9. Obidova, F., and Z. Umarova. "FOREIGN EXPERIENCE OF SMALL BUSINESS DEVELOPMENT." Экономика и социум 5-1 (2021): 376-379.
10. Obidova, Feruza Yaxyoevna, and Zevi Odilovna Umarova. "IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA INNOVATSION LOYIHALARNING O'RNI." Global Science and Innovations: Central Asia (см. в книгах) 3.7 (2021): 25-29.
11. Умарова, Зеби Одилевна, and Феруза Яхеевна Обидова. "Значение свободных экономических зон в развитии национальной экономики." Актуальные научные исследования в современном мире 2-6 (2019): 53-57.
12. "2022 -2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi"
13. Yengil sanoat va charm sanoati korxonalarida xotin-qizlarning mehnat huquqlarini himoya qilishning holati yuzasidan O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasiga parlament so'rovi
14. https://uz.wikipedia.org/wiki/Yengil_sanoat
15. <https://itm.uz/files/presentation/2-mavzu.pdf>
16. <https://sputniknews.uz/20230306/toqimachilik-eksport-salohiyati-32685606.htm>
17. <https://sputniknews.uz/20230306/toqimachilik-eksport-salohiyati-32685606.html>

18. https://uz.wikipedia.org/wiki/Yengil_sanoat

19. <https://aniq.uz/yangiliklar/2023-yilning-birinchi-yarmida-uzbekistonda-sanoatmahsulotlarini-ishlab-chiqarishning-umumiy-hajmi-5-6-foizga-oshdi>

